

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashtlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratilar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'alariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

BADIY KRIMINAL ASARLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

CRIMINAL FICTION WORKS AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS

КРИМИНАЛЬНЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Sultonova Dilnoza Sohibjonovna¹¹Sultonova Dilnoza Sohibjonovna

– Namangan davlat universiteti, Jahon tillari fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola jahon adabiyotida mashhur bo'lgan va o'zbek milliy adabiyotida asosan mustaqillik yillarida keng ommalashgan badiiy kriminal asarlar (crimefiction), ularning janr xususiyatlarini yoritishga bag'ishlanadi. Unda badiiy kriminal asarlarga nazariy tavsif beriladi. Ularning muhim tarkibiy elementlari tasnif etiladi. Jinoyat mavzusidagi asarlarga xos bo'lgan xususiyatlarga izoh beriladi. Maqolada nazariy fikrlarni asoslash maqsadida o'zbek va ingliz badiiy adabiyotidagi kriminal mavzudagi asarlar tahlil qilinadi.

Аннотация

Данная статья посвящена выяснению жанровых особенностей произведений криминального жанра (криминальной фантастики), популярных в мировой литературе и в узбекской национальной литературе, в основном, в годы независимости. Дается теоретическая характеристика художественных криминальных произведений. Их важные структурные элементы классифицированы. Объясняются особенности, характерные для произведений на тему преступления. С целью обоснования теоретических представлений в статье анализируются произведения на криминальную тематику в узбекской и английской художественной литературе.

Abstract

This article is devoted to the elucidation of the crime fiction, which are popular in the world literature and in the Uzbek national literature, mainly in the years of independence, and their genre features. It gives a theoretical description of artistic criminal works. Their important structural elements are classified. The features characteristic of works on the theme of crime are explained. In order to justify the theoretical ideas, the article analyzes the works in Uzbek and English crime fiction.

Kalit so'zlar: Badiiy kriminal asar, janr, asar elementlari, janr xususiyatlari, jinoyat, jinoyatchi, detektiv (izquvar), kriminalist yozuvchi.

Ключевые слова: Криминальная проза, жанр, элементы произведения, жанровые особенности, преступление, преступник, детектив, писатель-криминалист.

Key words: crime fiction, genre, elements of the work, genre features, crime, criminal, detective, criminalist writer.

KIRISH

Jinoyat mavzusidagi asarlar ingliz tilida "crimefiction" atamasi bilan yuritiladi [8, 21]. Bu janr rus adabiyotida ham keng tadqiq etilgan hamda "криминальное проза", "криминальная роман" kabi atamalar bilan yuritilgan.

O'zbek adabiyotida jinoyat mavzusidagi asarlarda asosan detektiv janri chuqur o'rganilgan [4; 7].

Bu janrda ko'plab adiblarimiz tomonidan asarlar yozilgan va bu jarayon davom etib kelmoqda.

Bunga jahon adabiyotining nodir detektiv asarlari, ayniqsa, ingliz yozuvchilari Artur Konan Doylning "Sherlok Xolms", Agata Kristining belgiyalik izquvar Erkyul Puaro timsolida turli jinoyatlar fosh qilingan asarlari yoki ushbu adibaning boshqa qator jinoiy romanlari va qissalaridagi fantastic dedektiv ayol Miss Marpl haqidagi filmlarning o'zbek tiliga o'girilgani ham muhim rol o'ynagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tadqiqotchilaridan Frankie Y. Bailey crime fiction – kriminal badiiy asarga shunday ta'rif beradi:

Kriminal badiiy asar (crime fiction)ning umumiy qabul qilingan ta'rifi syujetida jinoyat markaziy o'rinni egallagan asardir... Haqiqiy hayotda sodir bo'lgan jinoyatlar va jinoyatchilar to'g'risidagi shov-shuvli hikoyalar, rivoyatlar, varaqalar va pamfletlar badiiy kriminal asarlarning

rivojlanishiga xizmat qildi. Tarixan badiiy kriminal asarlar siyosiy va jinoyatchilikka oid adliya tizimlariga parallel ravishda rivojlangan [3].

Rus tilidagi “Картаслов.ру—rus tilidagi soʻz va iboralar xaritasi”, onlayn izohli lugʻatda biz quyidagi taʼrifga duch kelamiz:

Kriminal proza – jinoyat, uning fosh etilishi, jinoyatchilar obrazlari va ularning motivlariga bevosita eʼtibor qaratuvchi adabiy janr, adabiy oqimning eng ommabop yoʻnalishlaridan biri. Uning xususiyatlari ilmiy fantastika yoki tarixiy romanlarda ham namoyon boʻladi. Kriminal proza bir nechta kichik janrlarni oʻz ichiga oladi. Masalan, detektiv (shuningdek, inglizchada whodunit), huquqiy triller (ingl. legal thriller), sud dramasi (angl. courtroom drama) va ajoyib detektiv (ingl. hard-boiled fiction) kabilar.

Italiyada bu turdagi asarlarning anʼanaviy nomi – "Giallo" ("Sariq") boʻlgan, chunki 1930-yillardan boshlab detektiv asarlar sariq muqovada nashr etilgan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz ushbu davomida mavzu doirasida ingliz va rus tadqiqotchilarining kriminal mavzudagi asarlarga bergan taʼriflaridan kelib chiqib, bunday asarlarni “badiiy kriminal asar” yoki qisqaroq “badiiy kriminalistika” deb atashni lozim topdik.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

“*Badiiy*” atamasi arab tilidagi «badʼun», «badeʼa» soʻzidan olingan boʻlib, nimagadir yangilik kiritish, yaratish, ijod qilish, oʻylab topish, kashf etish kabi maʼnolarni anglatadi [2]. Termin sifatida esa goʻzallik qonuniyatlari asosida amal qiluvchi sanʼatning eng birlamchi, yetakchi tushunchasini bildiradi.

“*Kriminal*” atamasi lotincha “crimen” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “aybdor”, “jinoiy” maʼnolarini bildiradi.

Badiiy kriminal asar — bu muayyan jinoyat sodir etilishi, uni yuzaga keltirgan omillar, soʻngra jinoyatni ochish uchun professional yoki havaskor detektiv(izquvar) tomonidan olib boriladigan taftish va tergov jarayonlarini badiiy gavdalantiradigan ijod namunalari.

Badiiy kriminal asar, asosan, jinoyat va uning taftishi haqida [9, 1]. Badiiy kriminal asar markazida jinoyat va jinoyatchilik haqidagi muammo yotadi. Bunday asarlarning tez ommalashishi va shuhrat qozonishining sabablari koʻp.

Bu muayyan mamlakatning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini buzish, huquqbuzarlik qanday va nima uchun sodir boʻlganligini ochib berish va jinoyat bilan aloqador muammoni hal qilish bilan birga, jamiyatning meʼyoriy asoslariga qaytish haqidagi asarlardir.

Kriminal badiiy asar jinoyat sodir etilishining motivlari va vositalari bilan bogʻliq boʻlgani sababli, tavsiflash, psixologik motivatsiya va kundalik hayotning mayda-chuydalari bilan chuqur shugʻullanadi, tergovchi-detektiv uchun odatiy deb qaraladigan yondashuvdan chetga chiqishga yordam beradi. Badiiy kriminal asar jinoyat va jinoyatchilar maʼlum bir madaniyatning qonuniy deb qaraydigan koʻrsatkichlari, jamiyatning qadriyatlari va axloqining barometri boʻlib, jinoyat sifatida yozilgan asarlarni aks ettiradi va tekshiradi [10].

Badiiy kriminal mavzusidagi asarlarni tadqiq etganda izlanuvchi oldida quyidagi savollar koʻndalang boʻladi:

Inson qanday qilib jinoyat koʻchasiga kirib qoladi? Inson uchun jinoyatchi nomini olishning qanday mazmun-mohiyati bor? Jamiyatda muayyan turdagi jinoyatlar qanday yuzaga keladi va rivojlanadi? Jinoyat haqidagi bunday asarlarning badiiy xarakterli jihatlari va badiiy ahamiyati nimalarda koʻrinadi? Kriminalistik asarlar oʻqishliligini oshiradigan omillar nimalardan iborat? Oʻquvchini undagi koʻproq nimalar jalb etadi? Bunday asarlarni yaratishdan maqsad kitobxonning mavjud qonunlarni chetlab oʻtish, qonunni buzish bilan bogʻliq yashirin istaklarini badiiy gavdalantirish zaruratimi yoki jinoyatchilarni qoʻlga olish va jazolash orqali jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlashga targʻib qilish gʻoyasini ilgari surishmi?

Bu va bu kabi savollarga javob izlash orqali badiiy kriminal asarlarning badiiy qiymati va ahamiyati aniqlanib boriladi.

Badiiy kriminal asarlarga boʻlgan talab har qachongidan ham yuqori[1]. Chunki zamonaviy jinoiy mavzudagi asarlardan koʻrish mumkinki, bu janr doimiy ravishda oʻzidagi oʻzgaruvchanlik va topqirlik xususiyatlari bilan qayta kashf etilmoqda [11].

Badiiy kriminal adabiyot nazariyasida yangi janrdir. Boshqa adabiy shakllarga qaraganda, u qisqaroq tarixga ega, kam tahlil qilingan va kam oʻrganilgan. Hatto nazariyotchilar va tanqidchilar

ADABIYOTSHUNOSLIK

tomonidan ham bu janrning o'ziga xos xususiyatlari va badiiy qiymati haqida yozilgan chuqur nazariy tahliliy materiallar ko'p emas. Bundan tashqari, bu janrni ko'p hollarda detektiv janri bilan adashtirishadi, chunki kriminal roman ham, detektiv roman ham bir qator umumiy elementlarga ega. Binobarin, ularni farqlash va ular orasidagi aniq chegarani belgilab olish zarur.

Adabiyotshunos Heta Pyrhönenning fikrlariga ko'ra, e'tiborga olish mumkin bo'lgan eng aniq farq — bu har bir romandagi bayonning turli yo'nalishlarda ekanligidir. Detektiv romanda asosiy e'tibor (nomidan ko'rinib turganidek) detektiv faoliyatga va jinoyatni taftish va tergov qilish jarayoniga qaratilgan bo'lsa, kriminal romanda ko'proq jinoyat, qotil va uning jinoy qilmishlari haqidagi voqealarga e'tibor qaratiladi. Qolaversa, detektiv janri tanqidchilar orasida ko'proq muhokama qilingani va shu boisdan ham kengroq ommaga tushunarli va tanish bo'lganini alohida ta'kidlash lozim (44-bet)[6].

Badiiy kriminal asarning o'ziga xosliklari haqida gap ketganda, uni tashkil qiluvchi doimiy elementlarini aniqlab olish masalasi ham muhimdir.

Fikrimizcha, kriminalistik mavzudagi asarlarda quyidagi **to'rtta asosiy element** mavjud bo'lishi mumkin:

Jinoyat va uni sodir etish badiiy kriminal asarda eng muhim syujet elementidir. Ko'pincha bu qotillik bo'lib, asar so'ngida u tergovchi tomonidan fosh etilishi yoki jabrlanganlar tomonidan qasos olish orqali jazolanishi kerak. Masalan, zamondosh yozuvchilardan biri Komil Sindarovning "Kechikkan qasos" romanida halok bo'lgan oila a'zolari uchun 20 yilga yaqin o'zini kar va soqovga solib, so'ngra butun bir oilaning o'limiga sabab bo'lgan Maryam va asardagi asl qotilni aniqlash uchun uzoq mashaqqat chekkan tergovchilar guruhi faoliyati kriminal asarlar markazida turgan jinoyat mavzusining asar syujetida nechog'lik hal qiluvchi o'rin tutishini belgilaydi.

Ayrim badiiy kriminal asarlarda bir nechta jinoyatlar sodir etilishi mumkin. Ayniqsa, asarda jinoyatchilarning o'zlari bosh qahramon sifatida gavdalantirilgan bo'lsa, bunday holatlar ko'p uchraydi. Bunga Agata Kristining "O'nta negr bolasi" yoki Tohir Malikning "Shaytanat" asarlari yorqin misol bo'ladi.

Huquqiy nuqtayi nazardan olib qaralsa, jinoyatning turlari ko'p. Mayda bezorilik, talonchilik, qotillik, tuhmat, nomusga tajovuz kabi jinoyatlarning har biri muayyan asar yaratilishi uchun asos bo'la oladi.

Badiiy kriminal asar tarixida yaratilgan bir qator namunalarda jinoyatchi begona, yovuz shaxsdir. Boshqa asarlarda esa u jinoyatdan qolgan izlarni puxta o'rganish asosida topiladigan "psixologik jumboq"dir. Ba'zida jinoyatchi jabrlangan shaxs uchun yaqin qarindosh, hamkasb yoki qardosh kishisi bo'lib chiqadi. Kriminal asar uchun jinoyatchi kim bo'lmasin, uning motivatsiyasi — jinoyatni sodir etishiga turtki bergan omillar va jinoyatning jamiyat hayoti uchun ta'siri har doim badiiy kriminal asar uchun muhimdir.

Jinoyatchi motivatsiyasi — kriminal asarda voqealar rivoji va ularning ishonarli chiqishi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. U bevosita asardagi asosiy g'oyani ifodalashi, o'quvchini kelgusida ana shunday jinoyatni qilmaslik yoki undan jabr ko'rmaslikka chaqirishi mumkin. Ba'zi asarlarda nafsning gapiga kirish yoki birovning mulkini qo'lga kiritish jinoyatchi uchun motivatsiya bo'lsa, ko'p asarlarda qasos olish tuyg'usi shaxsni jinoyatni sodir etishga faol undaydi. Masalan, yozuvchi Xayriddin Sultonov qalamiga mansub qimorbozlik illati qoralangan "Yo Jamshid" hikoyasida oson pul (boyluk) ni qo'lga kiritish ilinjida qotillik va nihoyat qahramonning o'zini o'ldirishiga yetaklaydi. Vaholanki, aynan asar qahramonlarini "harakatlantirgan" pullar ham asar so'ngida yonib kulga aylanadi.

Tergovchi. Ba'zida yolg'iz shaxsiy detektiv, ba'zida politsiya xodimi yoki oddiy fuqaro, tergovchi yoki tergovchilar guruhi jinoyatni taftish qilish va jinoyatchini aniqlab, uni jazolashga harakat qilgan ekan, asosan farazlarga tayanib ish ko'radi. Aksariyat vaziyatlarda tergovchi jinoyatchining o'ziga xos huquqbuzar (transgressive) yoki deviant xulqli shaxs sifatidagi xislatlarini "fosh qiladi".

Jinoyatchilik mavzusi (masalasi). Mutaxassislarining fikricha, muayyan asarni badiiy kriminal deb tavsiflash uchun unda jinoyat sodir bo'lishining o'zi yetarli emas. To'g'ri, har qanday kriminalistik mavzudagi asarda jinoyat haqida gap boradi. Biroq eng muhimi, ana shu jinoyat bahonasida kishilar o'rtasidagi shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar yoritib beriladi, jamiyat va uning a'zolari hayotidagi muayyan muammolar, kamchilik va illatlar ochib beriladi. Masalan, Gabriel

Garsia Markesning "Oshkora qotillik qissasi"da loqaydlik, o'zgaralar hayotiga befarqlik bir inson umriga zomin bo'ladi, o'z oilasining nomusini himoya qilish uchun otlangan ikki akani qotilga aylantiradi. Bunday fojiaiy yakunga jamiyatdagi odamlarning "tekin tomoshabin" bo'lib turishlari alohida "hissa qo'shadi".

Jinoyat mavzusidagi asarlarni tashkil qiladigan asosiy elementlar haqida gap ketganda ayrim tadqiqotchilarning bu boradagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir.

Jumladan, "Rocky mountain fiction writers" saytida Julia Kazimerning "12 elements of crime fiction"[5]. sarlavhali tahliliy materiali berilgan. Unda G'arb adabiyoti jinoyat asarlarida uchraydigan 12 elementni sanab o'tadi. Muallif ushbu elementlar haqida dastlab shunday izoh beradi.

"Ushbu elementlar va qoidalar jinoyat mavzusidagi badiiy asarga o'ziga xos jilo va uslub beradi.

E'tibor bering, men quyida sanab o'tgan elementlarning har biri ham barcha kitoblarda bo'lmaydi. Ammo men ishonamanki, agar siz biron-bir jinoiy romanning nusxasini kitob javoningizdan olsangiz, ichida shulardan kamida bittasini va ehtimol yanada ko'prog'iga duch kelasiz."

Maqolada sanab o'tilgan elementlar quyidagilar:

1. Ochiq ko'ngilli yengil tabiat ayol/ bezori erkak
2. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish/suiiste'mol qilish
3. Nopok politsiyachi
4. Stol/kabinet/hojatxona idishida yashiringan bir shisha ichimlik
5. Halokatga uchragan yoki zo'rlangan ayol
6. "Qo'g'irchoq yuz" yoki "go'dak qo'g'irchoq" atamasi, albatta, ayol kishini qo'g'irchoqqa o'xshatib tasvirlash
7. Ayolning oyoqlari tasviri, jonli batafsil tasviri
8. Jamoat ovqatlanish joyi/bar/tungi klub/
9. "Serjahl" yigit, ko'pincha ismi Eddi bo'ladi
10. O'lgan hamroh / sevgilisi va / yoki sobiq sherik / sevgilining xiyonati
11. Kashanda/sigaret chekuvchi qahramon va/yoki yovuz odam
12. Birinchi 10 sahifada o'lik jasad tasviri [5].

Ushbu elementlar bilan tanishganda kishi xayolida ko'pincha G'arb mamlakatlarining jinoyatga bag'ishlangan filmlari va romanlari beixtiyor gavdalanadi. Biroq aynan shunday tasvirlar bugungi o'zbek adabiyotida yaratilayotgan jinoyat mavzusidagi asarlarda ham turlicha shakllarda uchrashini ta'kidlash zarur. Xususan, kashanda odam, buzuq ayol, tungi klub manzaralari uchraydigan tasvirlar bunday asarlarda ham kam emas. Ular bevosita asarning badiiyligini oshiradi. O'quvchini tasvirlanajak jinoyat muhitiga olib kirishga tayyorlaydi.

Aksariyat jinoyat haqidagi asarlar janr bo'ylab ba'zi bir standart xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

Tergov yoki jinoiy ish surishtiruv odatda jinoyatni ochishda qiziqarli badiiy asarni yaratishga zamin bo'ladi. Tergovni professional yoki havaskor detektiv olib borishi mumkin.

Janriy elementlar. Jinoiy-fantastik asar ma'lum bir kichik janrga moslashtirilgan **vasubjanr elementlarini** o'z ichiga oladi. Misol uchun, josuslik haqidagi kriminal asarida ayg'oqchi bo'lgan qahramon voqealar markazida qo'yiladi. U ko'pincha qiyin vaziyatlarga tushib qoladi yoki uning josuslik faoliyati haqida atrofdagilarda shubha va mayda dalillar paydo bo'lib qoladi.

Shubhalilik va sirlilik jinoyat kriminal asarlarida muhim rol o'ynaydi. Muallif turli xil adabiy uslublar va vositalardan foydalangan holda shubha tug'diradigan sirli vaziyatlar yaratishi mumkin. Masalan, jinoyatning sodir bo'lishi haqida dalil va tajribaga asoslangan bashorat qilish yoki bir nechta nuqtai nazarni ilgari surish.

Jinoyatga jazo muqarrarligi. Odatda, badiiy kriminal asarda jinoyat fosh qilinadi va aybdor javobgarlikka tortiladi. Agar mazkur xususiyat badiiy asarda tushirib qoldirilsa, asardagi qahramonning jinoiy qilmishlaridan jazosiz qolishi kitobxonni bunday qonun buzilishlarni sodir etsa ham, kishi jazolanmay qolishi ham mumkin ekan, degan fikrni shakllantirishi va shunday hayotga targ'ib qilib qo'yishi mumkin.

XULOSALAR

Umuman olganda, badiiy kriminal asar adabiy, kino va televideniye janri bo'lib, u shaxslarning jinoiy faoliyatidan hikoya qiladi. Bu, odatda, sodir etilgan jinoyatni, so'ngra jinoyatchini

ADABIYOTSHUNOSLIK

qo'lga olishga qaratilgan tergovni o'z ichiga oladi. Ushbu janr o'z ichida yana detektiv fantastik, huquqiy triller, politsiya protsessual roman, josuslik va ajoyib detektiv kabi turli xil janrlarga tasniflanishi mumkin.

Badiiy kriminal asar ko'pincha zo'ravonlik sahnalari tasvirini o'z ichiga oladi, voqealari gavjum shahar muhitida ro'y beradi va murakkab syujet chiziqlari va ko'plab sirli jumboqlardan tarkib topadi. Ushbu janrdagi mashhur mualliflar orasida Agata Kristi, Raymond Chandler, Dashiell Hammett va Enn Perri bor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Flood A. Research finds reading books has surged in lockdown.- The Guardian. 2020. 15 may.
2. Баранов, X. K. Арабско-русский словарь [Текст] : Около 42 тыс. слов / X. K. Баранов. – 7-е изд., стереот. – М. : Рус. яз., 1989. – 928с. (Baranov, Kh. K. Arabic-Russian dictionary [Text] : About 42 thousand. words / X. K. Baranov. - 7th ed., stereot. - M. : Russian. Language., 1989. – 928p.)
3. Bailey Y. Frankie Crime Fiction // <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190264079.013.29> 27 July 2017.
4. Muhammadjonova G., Abdusalimova S. Detektiv janrining strukturaviy va kompozitsion xususiyatlari. // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 12-son, 19.10.2022. (Muhammadjonova G., Abdusalimova S. Structural and compositional features of the detective genre. // Journal of interdisciplinary innovations and scientific research in Uzbekistan, issue 12)
5. Kazimer J.A. 12 elements of crime fiction. // <https://rmfw.org/2017/08/08/12-elements-of-crime-fiction/> 8 August, 2017.
6. Pyrhönen, Heta. Criticism and Theory. A Companion to Crime Fiction, edited by Charles Rzepka and Lee Horsley. Blackwell Publishing, 2010, pp. 43-56.
7. Rahimov Z., Talaboyeva M. Milliy detektivning shakllanish omillari // "Sharq yulduzi", 2014–1 (Rahimov Z., Talaboyeva M. Factors of formation of national detective // "Eastern star")
8. Charles.J.Rzepka. Introduction: What is crime fiction? // A Companion to Crime Fiction. (Ed. by Ch.J. Rzepka and L.Horsley. – John Wiley & Sons, Ltd., Publication. 2010. – P.649
9. Worthington, Heather (2011). Key concepts in crime fiction. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
10. [Seago K. An introduction to crime \(fiction\) in translation // https://www.academia.edu/16294089/An_introduction_to_crime_fiction_in_translation.pdf](https://www.academia.edu/16294089/An_introduction_to_crime_fiction_in_translation.pdf)
11. Contemporary Crime Fiction: Crossing Boundaries, Merging Genres. Edited by Charlotte Beyer. Cambridge Scholars Publishing. 2021
12. <https://kartaslov.ru/значение-слова/криминальный+роман>